




# CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*2022- yil yanvar-noyabr holatiga ko'ra, dastlabki  
ma'lumot*




**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel: 76-225-65-74**


## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI



### Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

### O'sish sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Uyushmagan savdo

### Tarkibiy qism, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Uyushmagan savdo

Yirik korxonalar

### Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **16 789,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 12,9 % ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 394,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 152,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 15 395,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 110,3 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 375,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 125,9 %) tashkil etdi.

### Uyushmagan savdo, mlrd. so'm

Dehqon bozori

948,9

39,9 %

Chorva bozori

1 426,7

60,1 %

Jami Uyushmagan savdo

2 375,6


100 %

## HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm



Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **16 789,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **112,9 %** ni tashkil etdi. Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida **91,7 %** kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga va **8,3 %** yirik korxonalar hissasiga to'g'ri keldi.

*Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumani 23,3 % ulush bilan 3 920,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.*



*Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Bandixon tumani 1,0 % ulush bilan 178,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.*





## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan viloyatning Termiz sh. (117,9 %), Qumqo'rg'on (115,1 %), Uzun (114,5 %) , Denov (112,8 %) va Angor (112,8 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining ko'payish sur'atlari kuzatilib, eng yuqori ko'rsatkich Termiz sh. da qayd etildi.

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>16789,6</b>	<b>112,9</b>	<b>1394,6</b>	<b>152,9</b>	<b>15395,0</b>	<b>110,3</b>
<b>Termiz sh.</b>	3656,2	117,9	942,6	175,4	2713,6	105,8
<i>tumanlar:</i>						
<b>Oltinsoy</b>	600,7	111,3	7,6	54,6	593,1	112,8
<b>Angor</b>	752,3	112,8	32,9	2,4 m	719,4	110,1
<b>Bandixon</b>	178,2	111,6	2,6	70,4	175,6	112,5
<b>Boysun</b>	708,8	109,4	4,6	40,9	704,2	110,6
<b>Muzrabot</b>	615,3	108,3	5,7	78,7	609,6	108,7
<b>Denov</b>	3920,2	112,8	234,8	2,1 m	3685,4	109,5
<b>Jarqo'rg'on</b>	891,4	112,0	24,7	68,2	866,7	114,1
<b>Qumqo'rg'on</b>	664,1	115,1	8,1	55,5	656,0	116,6
<b>Qiziriq</b>	666,5	111,4	5,5	47,5	661,0	112,6
<b>Sariosiyo</b>	613,9	109,9	7,3	31,2	606,6	113,3
<b>Termiz</b>	315,0	108,6	18,8	47,9	296,2	118,1
<b>Uzun</b>	686,2	114,5	19,6	169,2	666,6	113,4
<b>Sherobod</b>	927,8	109,3	31,9	108,7	895,9	109,4
<b>Sho'rchi</b>	1593,0	110,4	47,9	98,2	1545,1	110,8



## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **52,9 %** ga o'sdi va **1 394,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **8,3 %** ulushiga to'g'ri keladi.


Eng past ulushga ega hududlar, % da



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **15 395,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **10,3 %** ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **91,7 %** ni tashkil etdi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, foizda**

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Boysun (**99,4 %**), Qiziriq (**99,2 %**), Muzrabot (**99,1 %**) va Qumqo'rg'on (**98,8 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **8,3 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahrida (**25,8 %**), Termiz (**6,0 %**), Denov (**6,0 %**) va Angor (**4,4 %**) tumanlarda kuzatildi.



**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik**

**Yirik korxonalar**


## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022- yilning yanvar-noyabr oylari holatiga ko'ra, o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **6 069,6** ming so'mni (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **10,3 %** ga oshdi) tashkil etdi.


### Hududlar kesimida ma'lumot (ming so'mda)

	Hajm, ming so'm	2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>6 069,6</b>	<b>110,3</b>
<b>Termiz sh</b>	<b>19 052,5</b>	<b>113,8</b>
<i>tumanlar:</i>		
<b>Oltinsoy</b>	<b>3 239,8</b>	<b>109,0</b>
<b>Angor</b>	<b>5 431,9</b>	<b>110,5</b>
<b>Bandixon</b>	<b>2 244,5</b>	<b>108,6</b>
<b>Boysun</b>	<b>5 882,3</b>	<b>107,4</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>4 148,9</b>	<b>106,1</b>
<b>Denov</b>	<b>9 715,5</b>	<b>110,1</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>3 896,1</b>	<b>109,6</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>2 702,7</b>	<b>112,6</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>5 567,6</b>	<b>109,1</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>2 798,2</b>	<b>107,6</b>
<b>Termiz</b>	<b>3 889,2</b>	<b>106,3</b>
<b>Uzun</b>	<b>3 793,1</b>	<b>112,1</b>
<b>Sherobod</b>	<b>4 559,4</b>	<b>107,0</b>
<b>Sho'rchi</b>	<b>7 250,9</b>	<b>107,8</b>

### Eng yuqori hajmga ega hududlar





### Eng past hajmga ega hududlar



\* Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Termiz sh (**19 052,5** ming so'm), Denov (**8 715,5** ming so'm), va Sho'rchi (**7 250,9** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 375,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **25,9** % ga oshdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **948,9** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **63,2** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **1 426,7** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **9,3** %) tashkil etdi.

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda





## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO AYLANMASI HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI

	Jami, mlrd. so‘m	2021- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so‘m	2021- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so‘m	2021- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	<b>2375,6</b>	<b>125,9</b>	<b>948,9</b>	<b>163,2</b>	<b>1426,7</b>	<b>109,3</b>
Termiz sh. tumanlar:	95,2	140,7	95,2	140,7		
Oltinsoy	213,8	120,2	48,4	150,4	165,4	113,5
Angor	112,2	128,9	78,4	158,0	33,8	90,4
Bandixon	115,2	112,6	5,1	76,3	110,1	115,1
Boysun	162,6	112,7	76,1	172,7	86,5	86,3
Muzrabot	266,9	112,4	72,8	145,4	194,1	103,6
Denov	235,5	113,5	139,6	189,6	95,9	71,6
Jarqo‘rg‘on	148,0	156,0	62,1	176,3	85,9	144,2
Qumqo‘rg‘on	208,3	154,8	74,1	183,7	134,2	142,5
Qiziriq	170,1	133,6	50,2	195,2	119,9	118,0
Sariosiyo	185,1	116,8	60,5	180,4	124,6	99,7
Termiz	62,3	106,0	10,1	2,0 m	52,2	97,0
Uzun	154,8	173,9	73,8	155,5	81,0	194,8
Sherobod	59,1	119,4	47,5	123,7	11,6	104,5
Sho‘rchi	186,5	124,2	55,0	171,5	131,5	111,4

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo‘jaligida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **948,9** mlrd. so‘mni, chorva (parranda) bozorlarida **1 426,7** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

\* Xo‘jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo‘shmagan holatda


\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning barcha tumanlarlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **948,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**453,8** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd. so'm



2022- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning barcha tumanlarlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **1 426,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **1 042,5** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **359,1** mlrd. so'mni, otlar **18,3** mlrd. so'mni, parrandalar **6,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



2022- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,0 %** ni tashkil etib, **329,2** mlrd. so'mga yetdi va 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **7,0 %** ga ko'paydi. Bunda jami savdo aylanmasining **96,2 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Surxondaryo viloyati</b>	329,2	107,0	12,5	57,2	316,7	109,3
Termiz sh.	112,4	109,3			112,4	110,0
tumanlar:						
Oltinsoy	9,1	108,7			9,1	104,2
Angor	10,2	114,1			10,2	109,3
Bandixon	1,7	118,3			1,7	117,6
Boysun	6,8	120,0			6,8	122,9
Muzrabot	7,6	114,2			7,6	106,4
Denov	53,3	113,5			53,3	119,8
Jarqo'rg'on	20,1	107,2			20,1	105,3
Qumqo'rg'on	8,3	110,3			8,3	101,0
Qiziriq	6,6	112,8			6,6	113,8
Sariosiyo	13,9	47,0			13,9	111,0
Termiz	31,3	109,4	2,2	92,1	29,1	110,7
Uzun	17,8	2,1 m	10,3	5,0 m	7,5	110,0
Sherobod	19,1	105,3			19,1	103,2
Sho'rchi	9,7	109,7			9,7	109,7




## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Ulgurji savdo tovar aylanmasi, foizda




Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **4 603,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **26,3** % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi **1 108,6** mlrd. so'mni (**38,9** % ga o'sdi) tashkil etdi.

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da





## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	4603,8	126,3	1108,6	138,9	3495,2	122,7
Termiz sh. tumanlar:	1373,2	109,2	181,7	70,9	1191,5	119,0
Oltinsoy	70,7	105,2	23,3	75,6	47,4	130,3
Angor	99,8	118,4	0,2	40,0	99,6	118,8
Bandixon	23,7	114,7			23,7	116,6
Boysun	61,0	123,5	1,6	93,9	59,4	124,6
Muzrabot	58,1	104,3	29,7	84,2	28,4	139,1
Denov	1465,5	129,0	254,9	130,4	1210,6	128,7
Jarqo'rg'on	292,5	119,0	40,0	113,7	252,5	119,9
Qumqo'rg'on	291,7	163,5	240,7	178,7	51,0	116,6
Qiziriq	29,9	109,1			29,9	116,9
Sariosiyo	125,8	117,2	3,6	127,4	122,2	117,0
Termiz	228,8	117,6	15,1	82,9	213,7	121,2
Uzun	74,6	186,7	26,9	57,5 m	47,7	120,8
Sherobod	93,7	163,1	54	2,2 m	39,7	122,0
Sho'rchi	314,8	2,5 m	236,9	4,0 m	77,9	119,7

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Uzun (**5 748,3 %**), Sho'rchi (**395,8 %**), Sherobod (**216,9 %**), Qumqo'rg'on (**178,7 %**) va Denov (**130,4 %**) tumanlarida kuzatildi.